

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA SIFAT SO‘Z TURKUMINI O‘RGATISH TEXNOLOGIYALARI

Normamatova Dilshoda Shamil qizi
Uz -Fin Pedagogika Instituti magistri
dilshodanormamatova7@gmail.com +998942890125

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini sifat bilan yaqindan tanishtirish, uning ma‘no turlarini o‘rgatish, so‘roqlari yordamida gap va matn orasidan sifatlarni topish, dars jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ayrim texnologiyalar haqida tushunchalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Sifat so‘z turkumi, zamonaviy ta’lim texnologiyalari, tarmoqlar (klaster), muammoli ta’lim texnologiyalari*

Maktabga ilk qadam qo‘ygan bolalarni o‘qish jarayoniga qiziqishlarini oshirish murakkab hisoblanadi. Shu bois ham mashg‘ulotlarni didaktik o‘yin texnologiyalari bilan boyitib borish ham o‘quvchilarni darsga bo‘lgan qiziqishlarini orttiruvchi omillardan biri hisoblanadi [1:306]. Mustaqil so‘z turkumlarini o‘rgatish jarayonida ham turli qiziqarli metodlardan foydalanish orqali o‘quvchilarga mavzu yanada tushunarli bo‘ladi va dars samaradorligini oshiradi.

Sifatni o‘rganish tizimi materialni leksik va grammatik tomondan izchillik bilan boyitib, murakkablashtirib borishni ko‘zda tutadi. O‘quvchilar 1 va 2-sinfda sifatning leksik ma’nosini kuzatadilar, sifatga qanday?, qanaqa? so‘rog‘ini berishga o‘rganadilar; 3-sinfda sifat so‘z turkumi sifatida o‘rganiladi; 4-sinfda ilgari o‘rganilganlar takrorlanib, grammatik materialga bog‘liq holda qip-qizil, yam-yashil

kabi orttirma darajadagi (atama aytilmaydi) sifatlarning yozilishi o‘rgatiladi. Ona tili va o‘qish darslarida o‘quvchilar nutqi yangi-yangi sifatlar bilan boyitiladi, ularga oldindan ma’lum bo‘lgan sifatlarning ma’nosiga aniqlik kiritiladi [2:258]. 1 va 2-sinfda o‘quvchilarga sifat aynan so‘z turkumi sifatida emas, balki ”Shaxs va narsa belgisini bildirgan so‘zlar“ tarzida tanishtiriladi. 3 va 4-sinfga o‘tganlarida esa sifat yaqindan o‘rganiladi va so‘z turkumi nomi bilan bilimlar mustahkamlanadi. Sifatning so‘roqlari o‘rgatilgach, bu so‘z turkumiga oid ayrim misollar keltiriladi, o‘quvchilarga yanada tushunarli bo‘lishi uchun ularga tanish tushunchalar, ya’ni ranglarning barchasi sifat so‘z turkumiga oid ekanligi o‘rgatiladi va ular ham bunga misollar keltiriladi. Bundan tashqari insonga xos bo‘lgan ijobiylar salbiy xususiyatlar, biz iste’mol qiladigan mahsulotlarning ma’zasi ham sifatga misol bo‘lishi haqida ma’lumotlar keltiriladi. Boshlang‘ich sinfda integratsion dars orqali fanlararo bilimlarini aniqlash maqsadida yoki o‘tilgan dars bo‘yicha qanday tushunchalarni anglaganliklarini aniqlash maqsadida ”Tarmoqlar“ usulidan foydalanish zarurdir. Bu usul o‘quvchilarni o‘quv faolliklarini oshirishda muhim hisoblanadi. Odadta o‘quvchilarning ba’zi birlari sustkash tinglovchilar bo‘lishadi, chunki ularga o‘qituvchi matnni tushuntiradi, shuning uchun ularning bilimlariga o‘qituvchi mas’ul degan ishonch shakllanib qolgan. ”Tarmoq“ usuli orqali esa u boshqalar bilimigagina tayanmasdan, balki o‘z fikrlarini ifodalashga urinadi. Sifat bo‘yicha

umumiylar mustahkamlanish uchun tarmoq (klaster) usuli foydalidir [1:306]. G‘oyalari orasidagi bog‘lanish,fikrlar ketma-ketligi uzviy ravishda tarmoqlanadi:rangni bildiruvchi sifatlar ketma-ket bir-biriga bog‘liq ravishda tartiblanadi,boshqa tarmoqdan esa ma‘za,ta’m,shakl,hajm,xil-xusuiyat sifatlari ham shunday tartibda tarmoqlanadi.Bu orqali o‘quvchilar sifatning ma’no turlarini ham to‘g‘ri farqlay olishni o‘rganishadi.

O‘quv jarayonlarida muammoli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ham samarali usullardan biri hisoblanadi. Muammoli ta’lim – bu mantiqiy fikrlash operatsiyasi va o‘quvchilarning izlanishli faoliyati qonuniyatlarini (muammoli vaziyat, tahlil, umumlashtirish bilishga qiziqish, ehtiyoj) hisobga olib tuzilgan ta’lim va o‘qitishning ilgari ma’lum bo‘lgan usullarini qo‘llash qoidalarining yangi tizimidir.Muammoli vaziyatlarning roli va ahamiyatini aniqlash o‘quvchi faol fikrlash faoliyatining psixologik-pedagogik qonuniyatlarini izchil ravishda hisobga olish asosida o‘quv jarayonini qayta qurish g‘oyasiga olib keldi [1:314].Biz biror so‘zni qaysi so‘z turkumiga oid ekanligini shu so‘zga so‘roq berish orqali aniqlaymiz.Misol uchun kitob-nima? (ot),chiroyli-qanday? (sifat),beshta-nechta? (son),yuguryapti-nima qilyapti? (fe'l) va boshqalar.Ammo o‘quvchilar bu jarayonda biroz qiynalishadi.Tajribalardan ma’lumki,agar o‘quvchilarga biror so‘zga savol bering deyilsa,ular anglab yeta olmaydi,bu vaziyatda nima qilish kerakligini bilishmaydi.Biror gap berilgan bo‘lsin va shu gapdan sifatni aniqlash kerak bo‘lsin,bunday holatda ba’zi o‘quvchilar taxminan biror so‘zni aytishadi,ammo uni isbotlab bera olishmaydi,sifatga so‘roq berib topish esa hayollariga ham kelishmaydi. Bu muammoni yechimi sifatida dars jarayonida qo‘llanilgan bir usulni misol keltirish o‘rinlidir. ”Men qiziqarli kitob sotib oldim“ ushbu gapdagagi sifatni topamiz.Avvalo sifatning so‘roqlarini yodga olamiz – qanday?,qanaqa? Ushbu gapdan esa mana shu so‘roqlarga javob bo‘ladigan so‘zni topish kerak.Muammo shundaki,o‘quvchilar savolni to‘g‘ri o‘rinda bera olishmasligidir,to‘g‘ri tahlil qilish uchun esa har bir so‘z o‘rniga mana shu so‘roq so‘zlarni qo‘yib, gapni qaytadan o‘qish kerak,gapimiz ma’noli bo‘lib va so‘roq gapga aylanadi.Har bir so‘zni olib o‘rniga qanday? so‘roq so‘zini qo‘yib ko‘raylik: qanday (men) qiziqarli kitob sotib oldim – bu gapimizda g‘alizlik mavjud,demak ”men“ so‘zi sifat emas.Men qanday (qiziqarli) kitob sotib oldim – bu gapimizda so‘zlar ma’no jihatdan bir-biriga to‘g‘ri bog‘langan va gapimiz so‘roq gapga aylandi,demak qiziqarli – sifat so‘z turkumi.Bundan ko‘rinadiki,matndan yoki gapdan ajratib olgan so‘z o‘rniga qanday?,qanaqa? so‘roqlaridan biri qo‘yilganda,gapimiz mazmunli bo‘lsa va so‘roq gapga aylansa,ana shu ajratilgan so‘z sifat deyiladi.Sifatning ma’nosiga ko‘ra turlari ham boshlang‘ich sinfdagi o‘rgatiladi.Ular quyidagicha o‘rgatiladi:rang-tus bildiruvchi sifatlar,ma‘za-ta’m bildiruvchi sifatlar,shakl-hajm bildiruvchi sifatlar va xil-xususiyatni bildiruvchi sifatlar.4-sinf darsligida quyidagi mashq keltirilgan:

34-mashq

Maktab - bu ulkan bilimlar olami.Birinchi sinfga kelgan bolaga mitti qo‘llari bilan har bir kichik harfni,har bir kichik raqamni chizish qanchalik qiyin bo‘lgan.Tengdoshlari bilan til topishish esa oson bo‘lgan.Maktab har bir o‘quvchi uchun katta oiladir.Har bir oilada bo‘lganidek,maktabda ham ota-onasi - o‘qituvchilar bor.Bolalar to‘g‘ri va chiroyli yozishni,ifodali o‘qishni va chuqur bilim egallashni o‘rganadi.Maktabda biz haqiqiy do‘stlar

orttiramiz,bilimga ega bo‘lamiz va hayotni o‘rganamiz.Maktab inson hayotining eng ajoyib davrlaridan biridir. [3:26].

Ushbu mashqda bir qancha sifat turkumiga oid so‘zlar keltirilgan,o‘quvchilar o‘rgangan bilimlariga tayanib,ushbu sifatlarni ma’no turlariga ko‘ra ajratishadi.

XULOSA

Sifat haqidagi bilimlarni o‘rgatishda o‘qituvchi o‘quvchilarga sifatlarni og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llay olishni mashq qildirishi kerak.Sifat so‘z turkumidan avval ot so‘z turkumi o‘rganiladi va sifat otga bog‘langan holda o‘rgatilsa samarali natijaga erishiladi.O‘qituvchi doim izlanuvchan bo‘lishi kerak va hozirgi zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanib, dars samaradorligini yanada oshirishga harakat qilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.D.A.Axatova. Boshlang‘Ich Ta’limda Zamonaviy Pedagogik Texnologiyalar: O‘quv uslubiy majmua. – Navoiy,2012

2.K.Qosimova va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi (Boshlang‘ich ta’lim talabalari uchun darslik). – T.: „Nosir” , 2009.

3. M.E.Tirova Ona tili darslik 4-sinf III qism „Novda edutainment” – T.:2023